60-yillarning boshlarida Y.G'ulomov boshchiligidagi S.Rahimov va I.Axrorovlardan iborat arxeologlar jamoasining yodgorlikning sharqiy rabod hududidan o'rta asrlarga oid hammom qoldiqlarini ochishi bilan yodgorlikdagi tadqiqotlar salmog'i ortib bordi[10]. 1967-1969 va 1976-1977 yillarda I.Axrorov tomonidan Ark, Shahriston (Aksi 1A, Aksi 1B) va g'arbiy rabodda olib borilgan arxeologik ishlar natijada IX-X asrlarga oid turar joy binosi qoldiqlari bo'lgan ayollar hammomi ham deyarli butunlay ochildi. Bundan tashqari turar-joylarning 10 dan ortiq nuqtalarida qazish va tozalash ishlari olib borilgan. I.Axrorov olingan barcha ma'lumotlarni umumlashtirib Axsikent uchta hududiy jihatdan ajratib, ko'p vaqt mobaynida aholi turar-joy inshootlaridan iborat: qadimgi, mo'g'ullardan oldingi va temuriylar davri xarobalaridan iborat bo'lganligini e'tirof etib o'tadi[11].

O.G.Bolshakov bu masalada o'zining umumlashtiruvchi asarida Axsikent tavsifiga ba'zi aniqliklar kiritish maqsadida qo'rg'on sifatida ichki shahristonni (Aksi 1A) oladi[12].

1976-yilda arxeologik yodgorlikning mikro madaniy qatlamlarini aniqlash maqsadida Shahriston I hududida shurf qazilgan bo'lsa, I.Axrarov va A.Anarbayev tomonidan 1979-1980 yillarda bu qazishma kengaytiriladi va qalinligi 7.5 metr bo'lgan 25 ta madaniy qatlamlar aniqlanadi. Bundan tashqari aholi punktidagi sakkizta joyda tadqiqot ishlari olib borildi. Shulardan beshtasida eski qazilmalarning davomi bo'lgan bo'lsa yana uchta yangi (IV, VI, IX) joyda qazishma ishlari olib borilib, mo'g'ullarga qadar Axsikent hayotining asosiy xronologik bosqichlarining tarixiy topografiyasini tavsiflovchi qimmatbaho materiallar qo'lga kiritildi[13].

G.Mirzaaliyev 1981-1986 yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan oshxona anjomlari kundalik hayotda ishlatiladigan turli xil ko'rinishga boy ekanligini o'rganib chiqadi. Axsiketning o'rta asr sirlanmagan sopol buyumlari stratigrafiyasini o'rganish shu kabi maishiy buyumlarning IX-XIII asr boshlarida o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega ekanligini ma'lum bo'ldi[14].

1982-1984 yillar davom etgan tadqiqotlarga A.Anarbayev rahbarlik qildi va Aksi 1B hududidagi yuqori qatlam qurilish davriga oid turar-joy binolarini o'rganish maqsad qilinganiga qaramay juda yirik chiqindi tashlanadigan o'ralar topib o'rganildi [15].

Axsikent shahar aholisining moddiy turar-joylarini o'rganish jarayonida axsiliklarning temirchilikda katta muvaffaqiyatga erishganliklarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Tadqiqotlar olib borilgan deyarli barcha qazishma ob'ektlarida katta miqdorda temirni qayta ishlash va ajratib olish uchun ishlatilgan tigellar borligi mahalliy metallga ishlov berish rivojlanganligiga dalil bo'la oladi. A.Kondakova rahbarligidagi qo'shma tadqiqot laboratoriyasi 1984-yilda shunday topilmalardan birining metallografik tomonidan o'rganib chiqdi. Bu amaliyot O'rta Osiyoda qora metallardan yasalgan topilmalarda o'tkazilayotgan birinchi tahlil edi. Buning natijasi o'laroq Axsikent temirchilik ustaxonalari mufassal o'rganilib yakuniy xulosalarga

kelingan. Shu yilgi tadqiqotlar natijasida IV ob'ektda tadqiqot ishlari olib borilib, u yerda G.Shishkina, O. Inevatkina va O. Papaxristu kabi arxeolog olimlarning XI-XII asrlarga oid metallurgiya va metallga ishlov berish ishlab chiqarish izlari va turar-joy binosi qoldiqlari topishganlarini qayd etib o'tish mumkin

Tadqiqotlar natijasida Eski Axxi shahar yodgorligi tagidan (8 ob'ekt) sopol idish namunalari va tosh qurollarining topildi va davriy sanasi miloddan avvalgi XIX asrni tashkil etgan dehqonchilik qarorgohi mavjud bo'lganligi isbotini topdi. Uning aholisi yuzlab gektar yerlarda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan degan xulosaga kelindi[17].

Xitoy manbalarini tadqiq etish natijasida Eski Axxi yodgorligi o'rnida miloddan avvalgi III asrda 40 gektar maydonni egallagan Parkana (Yuan-cheng) shahri mavjud bo'lib, Davon davlati poytaxti bo'lganligi aniqlandi. Shahar oqsoqollar kengashi tomonidan boshqarilgan va ular tomonidan shaharning tashqi va ichki siyosati nazorat qilinganligi hujjatlarda o'z aksini topgan. Shahar keyinchalik Farg'ona vodiysining eng yirik shaharlardan biriga aylanadi. Manbalarda Farg'ona nomi bilan qayd etilgan va IX asrga kelib Axxi deb atala boshlangan. XII asrga qadar tangalarda Axxi-Farg'ona deb zarb etish davom etilgan. Tadqiqotlar shaharning toki XIII asrga qadar gavjum markaz bo'lganligini va shu davrdan boshlab zavolga yuz tuta boshlagan ekanligini isbotladi.

Arxeologik tadqiqotlarning natijasi o'laroq shahar tarixi va arxeologik imkoniyati umumlashtirilib Eski Axxi yodgorligi asosida yangi innovatsion "Ochiq osmon ostida" muzeylar parkini tashkil etish loyihasi ishlab chiqildi. Yodgorlikni muhofaza qilish tadqiq etish direksiyasi tuzilib, 2019-yildan boshlab O'zbekiston hududida birinchi marta arxeologik yodgorlik asosida muzey o'zining ish faoliyatini boshladi. 2023-yil boshidan boshlab qurilishi rejalashtirilgan 9 ta "Ochiq osmon ostida muzey"dan to'rttasini qurish uchun amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali arxeologik yodgorlik asosida haqiqiy tarix bilan mehmonlarni tanishtirish va bunday yodgorliklarni turizm markazlariga aylantirish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963. №3 198 с.
2. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.
3. Анарбаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171
4. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с
5. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.
6. Анарбаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171
7. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.
8. Анарбаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171 с.
9. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.
10. Анарбаев А. Ахроров И. «Баня средневекового Ахсикента». ИМКУ 1991 №25 173 с.
11. Ахроров И «Археологические исследования городища Ахсикет в 1960 году» Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1962 №8 54 с.
12. Анарбаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171 с.
13. Анарбаев А. Иневаткина О. «Стратиграфическое изучение Шахристана I городища Эски-Ахси». ИМКУ 1990 №24 71 с.
14. Мирзаалиев Г. «Об одной группе кухонной посуды Ахсикета» ИМКУ 25 1991 183 с.
15. Анарбаев А. Ильясова С «Раскопки ремесленного квартала на городище Эски-Ахси». O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi 2000 №27 212 с.
16. Папахристу О. «К вопросу о функциональном назначении двух печей из эски Ахсы (Ахсикет) в Фергане» O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi 1999 №30 274 б.
17. Анарбаев А. «Қадимги Фарғона давлати ва унинг пойтахти тарихидан лавҳалар». Водийнома 2016 №1 36 б.
18. Хўжаев А. «Қадимги Фарғона давлатининг илк пойтахти хақида». Водийнома 2016 №2 27 б.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901535>

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA MILLIY O‘ZIGA XOSLIK ELEMENTLARINING AKS ETISHI

Yo‘ldosheva Xilola Yunus qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Abdullaxodjayev G‘ayrat Tolipovich
“Ijtimoiy fanlar va jimoniy madaniyat”
kafedrasi dotsenti, yuridik fanlari nomzodi,
ilmiy maslaxatchi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston tasviriy san’atini taraqqiyot bosqichlari jahona san’ati bilan qiyosiy rivojlanganligi haqida hamda mazkur jarayonlarda rassomlarning ishtiroki xususida ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekiston rangtasvirini o‘ziga xoslik jihatlari, rassomlar ijodiy faoliyati, davriy jarayonlar san’atshunoslar tomonidan ilgari surilgan fikr mulohazalar aks o‘z ifodasini topgan.

***Kalit so‘zlar:** madaniyat, san’at, avangard, impressionism, kubizim, ekspressionizm, syurrealizm, abstraksionizm, klassitsizm, rangtasvir, rassom, g‘oya, tasviriy san’at.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация об этапах развития изобразительного искусства Узбекистана по сравнению с мировым искусством и об участии художников в этих процессах. Особенности живописи Узбекистана, творческой деятельности художников, периодических процессов отражены в мнениях искусствоведов.

ANNOTATION

This article provides information about the stages of development of visual art of Uzbekistan compared to world art and about the participation of artists in these processes. The characteristics of the painting of Uzbekistan, creative activity of artists, periodical processes are reflected in the opinions put forward by art critics.

Taraqqiy o‘tib borgan jahon madaniyati bizga shuni ma’lum qiladiki, san’at sohasi o‘ziga hos tabiyatga ega bo‘lib millatlarga oid bo‘lgan qonunlarga boysunmaydi. Tasviriy san’at, Fransisko Goyyaning mashhur ta’rificha, - bu irq millatlaridan qat’iy nazar barchaga tushunarli bo‘lgan, insoniyatning “umumiy tilidir”. San’atdagi taraqqiyot milliy mahdudlik va alohidalikni emas, balki, aksincha, kishilar, halqlar va davlatlar o‘rtasidagi ma’naviy qadriyatlar bilan doimiy almashuvini taqazo etadi. Dastlab, Mustabid tuzumi davrida san’at asarlari bebaho sanalgan va ularga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni sir saqlashgan. Ularni chetga chiqarib tarqatganlar uchun qat’iy chora ko‘rilgan. Zotan, shu boyliklar ularni madaniyati, an’analaridan habar berib turadi chunki yaratilgan asarlar ularning milliy insoniy jihatlarini o‘z ichiga olgan. Lekin hatto bunday tushunchalar ham rivojlanish jarayonida til rivojida bo‘lgani kabi muntazam ravishda nimanidir ortirib, qaysidir jihatidan ajraydi, biroq abadiy qotib qolmaydi, balki kundalik vaqt oqimida uzluksiz o‘zgarib boradi.

Madaniyatning barcha jabhalari taraqqiy etib, takomillashib boruvchi murakkab jarayon bo‘lib, u o‘ta ziyraklik va bilimdonlik bilan munosabatda bo‘lishini taqazo etadi. Butun XX asr davomida O‘zbekistonda tasviriy san’at Yevropa badiyat maktabi va mahalliy rassomlarning ko‘p millatligi guruhining faol ishtirokida taraqqiy etadi va yuksaladi. XX asrdagi jahon tasviriy san’atining kubizm, ekspressionizm, syurrealizm, abstraksionizm kabi yo‘nalishlar O‘zbekiston zamonaviy rangtasvirining ayrim ustalari tomonidan amalga oshirildi. Bunday yo‘nalishlarning bevosita yoki bevosita ta’siri respublikaning yigirmanchi va o‘ttizinchi yillardagi yirik rassomlari, hozirgi o‘zbekistonlik rangtasvirchilar: jumladan J.Umarbekov, B.Jalolov, F.Gambarova, M.To‘xtayev va boshqalarning ijodiy amliyotida namoyon bo‘ldi. Bugun qayta uyg‘ongan O‘zbekistondagi san’at yakkalangan holida emas, balki butun jahon san’atining badiiy tamoyillari bilan o‘zaro aloqada va bahamjihatlikda taraqqiy etdi.¹

¹ Рафаэл Такташ “Санъатнинг макони хусусида”, //SAN’AT 1-3/1998

O‘zbekiston rangtasviri o‘ziga xosligi bilan boshqa san’at turlaridan farq qiladi. Lekin shunga qaramay o‘zbek rangtasviriga Yevropa san’ati an’analari o‘z ta’sirini o‘tkazganligini kuzatamiz. Bunga misol qilib kubizm, impressionizm, futurizm va yana boshqa ko‘plab oqim va yo‘nalishlarni keltirib o‘tish mumkin. Bu yillarda jahon xalqlari san’ati g‘oyaviy plastik san’ati rivoji, XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus san’atidagi g‘oyaviy plastik masalalar borasida izlanishlar ham ko‘pgina san’atkorlarning qiziqishiga sabab bo‘lgan. “Abstrak san’at, uning ko‘rinishlari ham O‘zbekistonda o‘zining davomchilarini topdi. Suprematizm, kubofuturizm, primitivizm kabi yangi san’at uslublarida asarlar paydo bo‘ldi. Bu yillarda XIX asr so‘nggida yuzaga kelgan yangi san’at uslublari o‘zining mantiqiy rivojini oldi, jumladan, impressionizm, postimpressionizm yutuqlari o‘zbekistonlik rassomlar ijodida o‘zining yangi qirralarini namoyon etdi.”¹

Dastlab, 1860 yillarda fransuz rangtasvirida vujudga kelgan. E.Mane, K.Mone, O.Renuar hayotdan olgan bevosita jonli taassurotlarini tasodifiy harakat, favqulodda holatlar ifodasida namoyon etdilar. Manzara, portret, ko‘p shaklli kompozitsiyalarda rassomlar tomonidan dastlabki taassurotlar kuchi va sofligi, betakror xususiyatlari mayda detallariga berilmasdan tasvirlandi. “Impressionistlar ilk bor zamonaviy shahar hayotining serqirra ko‘rinishlarini yaratib, asarlarida shahar manzarasi va undagi odamlar qiyofasida uning o‘ziga xosligini aks ettirdilar. K. Mone, E. Dega, K. Pissarro, A. Sisley kabi manzara ustalari o‘z asarlarini ochiq havoda ishlab quyosh nuri jilosini, tabiatning rang-barang bo‘yoqlari boy majmuasini yorqin aks ettirdilar, plener ularning asarlaridagi kundalik ohanglarga quyosh nuri bilan to‘yingan, bayramona kayfiyat baxsh etgan.”²

Yetuk impressionizm asarlari yorqinligi va hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Impressionizm xususiyatlari neoimpressionizm va postimpressionizm da taraqqiy etdi. Amerikada J.Uistler, Germaniyada M.Liberman, L.Korint, Rossiyada K.A.Korovin,

¹ Абдуллаев Н. История искусств.-Ташкент: Ўқитувчи, 1986.- 208

² Вклад Узбекистана в развитие исламской цивилизации / Материалы международной конференции. Т., 2007

I.E.Grabar va boshqalar ijodi Impersionizm rivojiga hissa bo‘lib qo‘shildi. 1880 – 1910 yillarda Impressionizm ko‘p rassomlar ijodiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Bu voqelikni yangi tomonlarini o‘zlashtirishda, plener usullarini egallashda namoyon bo‘ldi.

Impressionist rassomlar ijodi o‘zbek rangtasvir san‘ati rivojida ham o‘z ifodasini topdi. O‘zbekistonlik rassomlar L.Bure, O.Tatevosyan, P.Benkov, Z.Kovalevskaya, A.Mirsoatov va boshqalar ijodida shu ta‘sir seziladi.

“Avangard san‘ati XX asrning birinchi yarmidan san‘atning eng yorqin, keng qamrovli badiiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U turli ijodiy uslublar, oqimlar, konsepsiyalar ma‘nosidagina emas, balki o‘zining geografik makonida ham keng qamrovlidir. Bugungi kunda bu tushunchaning turli izohlari mavjud: Yevropa avangardi, rus avangardi, gruzin avangardi, Turkiston avangardi va boshqalar. Ular ma‘lim umumiy jihatlariga ega bo‘lsalar ham, bu yo‘nalishlarning barchasi o‘ziga xosligi, madaniy rangbarangligi, ruhiyati va shoirona o‘zligi bilan ajralib turadi.”¹

XX asr Yevropa san‘atida vujudga kelgan bu yo‘nalish sharqda allaqachon o‘zining turli qirralariga erishib bo‘lganligi ko‘pchilikka ma‘lum. Lekin zamon va makonning o‘zgarishi bilan yo‘nalish va uslublarning qayta tug‘ilishi hamda avj olishi tabiiy. Ta‘kidlash joizki, faqatgina shaklda emas, balki borliqni anglash va mazmunan sharhlashda ham avangardga munosabat bildirish mumkin. 1920-30 yillar O‘zbek milliy tasviriy san‘ati shakllanish yillari bo‘ldi. O‘zbek milliy san‘ati bilan zamonaviy san‘at uyg‘unlashuvi natijasida o‘zgacha uslub shakllanib rivojlanib bordi. O‘zbek zamonaviy san‘ati o‘zining bir tomonidan O‘rta Osiyo milliy san‘atiga xos uslub hamda Yevropa modern san‘ati uslubi, yangi shakllanib kelayotgan avangard ko‘rinishlariga tayangan holda o‘zgacha tus oldi. U yoki bu uslubni aynan qaytarib yoki tahlil qilib emas, balki davr talabi, g‘oyaviy yo‘nalishi va ijodkorning shaxsiy qarashi va professional mahorati assosida ishlanib o‘ziga xos qaytarilmas joziba kasb eta bordi.

¹ Ойдинов Н. Тасвирий санъат тарихидан лавҳалар. Тошкент «Ўқитувчи» 1997,

O‘zbekistonda avangard taqdiri o‘ziga xosdir. Uning bu o‘lkada tug‘ilishi turli g‘oyalar va ta’sirlar bilan bog‘liq. Masalan, N. Ahmedovanning fikricha: “eski dunyoning to‘ntarilishi, yangi jamiyatning mafkuraviy va ijtimoiy muammolari, yosh milliy maktabning shakllanishi, rassomlarning murakkab, ba’zan esa fojeaviy hayot yo‘llari kabi tarixiy jarayonlar ko‘p narsani belgilab berdi. Keng tarixiy madaniy asosda uning o‘ziga xosligi shundaki, u san’atdagi ikki xil uslubning uyg‘unlashuviga, to‘qnashuviga sabab bo‘ldi: sharqona an’anaviylikka asoslangan mahalliy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan rus avangardi va Yevropa avangardi modellari o‘zaro aloqaga kirishdi”.¹

XX-asr boshlarida O‘zbek rangtasvirida nafaqat plastik masalalar, balki g‘oyaviy uslubiy masalalar ham munozarali bo‘ldi. Voqelikning o‘ziga o‘xshatish, klassik shakllardan tortib yangi davr mazmuni mutloq yangi shakl va vositalar topish masalalari muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu yillarda jahon xalqlari san’ati g‘oyaviy-plastik san’ati rivoji, XIX-asr so‘ngi XX-asr boshlarida rus san’atidagi modern masalalari borasida izlanishlar ham ko‘pgina san’atkorlarning qiziqishiga sabab bo‘lgan. Abstrak san’at, uning ko‘rinishlari O‘zbekistonda o‘zining dovomchilarini topdi.

Agar grafika san’ati davr mafkurasi bilan bog‘liq holda rivoj topib uning g‘oyalarini targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lsa, rangtasvir san’atida bu masala birmuncha sust borib, siyosatdan dastlabki yillarda deyarli uzoq bo‘ldi. Rassomlar san’atning bu turida o‘z shaxsiy kechinmalarini tasvirladilar, o‘zlarini qiziqtirgan mavzularda rasmlarni ko‘proq ishladilar. Me’moriy obidalar, sharq ko‘chalari va bozorlari, u yerdagi qizg‘in hayot shu san’atda ijod qilgan rassomlar asarlarining mazmunini tashkil etdi. “Bu yillarda rangtasvirda dastgoh san’ati yetakchi o‘rinni egallab, ijodiy izlanishlar aynan san’at shu turida o‘z ifodasini topdi. Shu yillarda birinchi mahalliy rassomlar o‘zlarini ko‘rsata boshladilar. O‘zbekistonda tavallud topib, badiiy bilim yurti talabalari shu yillarda o‘z ijodlarini boshladilar. Shu yillarda tashkil topgan turli

¹ Хакимов А.А. Ташкент: культурологический контекст урбанизма. // Доклад на научной конференции в Институте истории, посвященной 2200 юбилею города. – Ташкент, 2009. – С. 20-25

rassomlik to‘garak va studiyalarga kelgan yoshlar moybo‘yoq, akvarel, guash va rangli qalamda rangtasvir alifbosini o‘rganib, o‘zlarining dastlabki mashqlarini bajardilar.”¹

Chetdan kelgan rassomlar yangi davr talablaridan kelib chiqib, o‘z qarash va yo‘nalishlarini o‘zgartirib bordilar. O‘rganilayotgan davr rangtasvir san’ati o‘zining uslubiy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu yillarda rangtasvirda nafaqat plastik masalalar, balki g‘oyaviy-uslubiy masalalar ham munozarada bo‘ldi. Voqelikni o‘ziga o‘xshatish, klassik shakllardan tortib yangi davr mazmuni uchun mutlaq yangi shakl va vositalar topish masalalari muhim masalalardan biriga aylandi. Bu yillarda avangardga nisbatan realizm birmuncha mustahkam o‘rinni egallab boy yo‘nalish va tiplari kengligi bilan harakterlanadi. Bu yo‘nalish tarafdorlari borliqni o‘z shakllarida ishlashga qarshi chiqmaganlari holda, real shakllarning o‘zida ramziy ma’no topishga, obrazlarni timsol darajasiga ko‘tarishga harakat qildilar. Buning uchun ular milliy san’at, sharq san’ati plastikasiga murojaat qildilar.

1910-1920 yillarda Turkistonga kelgan rus rassomlari o‘z paytining jamoa-siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayoti bilan bog‘liq harakatda faol ishtirok etishga, O‘zbekistonda badiiy savod chiqarishda jonbozlik ko‘rsatishdi. Hali o‘zlari yosh bu g‘ayratli, badiiy ijodining turli oqimlariga dahldor, dovyurak rassomlar bir intilishda “yangi asr” tasviriy san’atini barpo qilishda yakdil edilar. Sharqning o‘ziga xosligi, noyobligi ular uchun puch tushuncha emas edi. O‘rta Osiyoga xos mumtozlik ularning izlanishlarida ozuqa bo‘lib xizmat qildi, yangicha yaratish ishlarini yoritdi.

¹ Ш.Аскарлов. Архитектура Темуридов. Т., 2009.

MANBALAR RO‘YXATI

1. Хакимов А.А. Искусство Узбекистана: история и современность; Ин-т искусствознания, АН РУз.-Т.: Изд-во ж-ла “San’at”. 2010.
2. Ахмедова Н.Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. Особенности формирования и развития. - Тошкент., 2004.
3. Такташ Р.Х. Художественно-критические этюды: пути и проблемы становления узбекского советского изобразительного искусства. - Тошкент.,
4. Аскарлов Ш. Архитектура Темуридов. Т., 2009.
5. Хакимов А.А. Ташкент: Культурологический контекст урбанизма. // Доклад на научной конференции в Институте истории, посвященной 2200 юбилею города. – Ташкент, 2009.
6. Вклад Узбекистана в развитие исламской цивилизации / Материалы международной конференции. Т., 2007
7. Ойдинов Н. Тасвирий санъат тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи” 1997.
8. Рафаэл Такташ “Санъатнинг макони хусусида”, //SAN’AT 1-3/1998.
9. Абдуллаев Н. Санъат тарихи.-Ташкент: Ўқитувчи, 1986.
10. Абдуллаходжаев Г. Нарушение авторского права в Республике Узбекистан и её ответственность. “Actual scientific research in the modern world” International Science Journal 06(86). 2022. 84-88 стр.
11. Абдуллаходжаев Г. Актуальность защиты авторских прав. Электрон “Образование наука и инновационные идеи в мире”.. 2022. 278- 284 стр.
12. Абдуллаходжаев Г. Компьютерная графика и её положение в современном обществе Узбекистана. Scientific Journal “ SKOLAR” Vol. № 7 03.2023. 17-21 стр.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901537>

TEMURIYLAR DAVRI TARIXINI O‘RGANISHGA OID NUMIZMATIK MATERIALLAR TAHLILI

G‘ayratjon Ismatullo o‘g‘li Jumayev

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ozarbayjon tarixi milliy muzeyida saqlanayotgan Temuriylarga oid numizmatik yodgorliklarning o‘rganilishiga oid ma‘lumotlar bayon etildi. Shuningdek, maqolada ozarbayjonlik olim Ali Muhammad o‘g‘li Rajablining tadqiqotining tarjimasini amalga oshirdik.*

***Kalit so‘zlar.** Temuriylar, Amir Temur, Shirvonshohlar, Jahonshoh, “Miry”, “Tangayi Shohruxiy”, Ali Rajabli, Oq qo‘yunlilar, Qora qo‘yunlilar.*

ANALYSIS OF NUMISMATIC MATERIALS RELATED TO THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TIMURID PERIOD

Gayratjon Ismatullo ogli Jumayev

Ph.D. student

Tashkent State University of Oriental Studies

gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

***Annotation.** This article provided information on the study of the Timurid Numismatic monuments housed at the Azerbaijani National History Museum. We translated the scientific study of Ali Muhammad ogli Rajabli, an Azerbaijani scientist, into this text.*

***Keywords.** Timurids, Amir Timur, Shirvanshahs, Jahanshah, "Miry", "Tangayi Shahrukhiy", Ali Rajabli, Kara Koyunlu, Ak Koyunlu.*

АНАЛИЗ НУМИЗМАТИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ, СВЯЗАННЫХ С ИЗУЧЕНИЕМ ИСТОРИИ ПЕРИОДА ТИМУРИДОВ

Гайратжон Исматулло ўғли Жумаев

Базовый докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

gayratjonjumayev44@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6742-587X>

***Аннотация.** В данной статье представлена информация об изучении нумизматических материалов Тимуридов, хранящихся в Национальном историческом музее Азербайджана. Также в статье мы перевели исследования Али Мухаммед огли Раджабли, азербайджанского учёного.*

***Ключевые слова.** Тимуриды, Амир Тимур, Ширванишахи, Джаханишах, «Мирий», «Тангайи Шахрухий», Али Раджабли, Кара Коюнлу, Ак Коюнлу.*

2009-yil 20-oktabrda Temuriylar tarixi davlat muzeyida o‘tkazilgan “Temuriylar tarixiga oid manbalar: tavsif, tarjima, tadqiqot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari tarkibiga kirgan ozarbayjonlik olim Ali Rajablining “Монеты из коллекции национального музея истории Азербайджана как источник по истории темуридов” deb nomlangan maqolasida, Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi, Ozarbayjon tarixi milliy muzeyi, Numizmatika fondi, Numizmatika va epigrafika bo‘limi kolleksiyasida saqlanayotgan XIV asr oxiri – XVI asrlarga oid qisman Elxoniyalar, Jaloyiriylar, Jo‘ji ulusi xonlari, Temuriylar, Qora qo‘yunlilar, Oq qo‘yunlilar, Shirvonshohlar, Safaviy va Shayboniy sulolalari hukmdorlariga tegishli tangalar tadqiqi amalga oshirilgandir. Ushbu maqolada XIV-XVI asrlarda yuz bergan harbiy, diplomatik, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida paydo bo‘lgan va kolleksiya xazinasidan joy olgan numizmatik materiallar tahlil etilgan. Olim Amir Temurning “uch yillik”, “besh yillik”, “yetti yillik” harbiy yurushlari davrida va Ozarbayjondagi siyosiy vaziyat, Temuriylar, Qora qo‘yunli, Oq qo‘yunli, Shirvonshohlar va Safaviylar zarb ettirgan tangalarning qachon, qayerda, kim tomonidan zarb etirilgani haqida ma’lumot beradi. Kolleksiya dan joy olgan ikki guruh tangalar xazinasini to‘plami haqida ma’lumot berar ekan, olim birinchi xazina 1956-yilda Ozarbayjon Respublikasi,

Astara viloyati, Archivon qishlog'idan topilganini qayd etgan bo'lib, xazina 48 ta kumush tangadan iboratdir, ammo tangalar bundanda ko'proq bo'lib, mahalliy aholining qo'lida qolgan boshqa xazina tarkibida bo'lgan. Temuriylarga oid tangalar:

- Amir Temur va Suyurg'atmishxon (1369-1378) tanganing zarb etilgan yili, shahri o'chib ketgan.

- Amir Temur va Mahmudxon (1378-1397), Shayx Abu Is'hoq, hijriy 792, tanga,

- Amir Temur va Mahmudxon, Domg'on, hijriy 792, tanga,

- Amir Temur va Mahmudxon, Yazd, hijriy 798, dirham.

- Amir Temur va Mahmudxon, Sarvon (Shirvon), hijriy 803, tanga,

- Amir Temur va Mahmudxon tanganing zarb etilgan yili, shahri o'chib ketgan.

- Xalil Sulton (1405-1409), Samarqand, hijriy 809, tanga,

- Xalil Sulton (1405-1409), Samarqand, zarb yili o'chib ketgan, tanga,

- Shohrux Mirzo (1405-1447), tanganing zarb etilgan yili, shahri o'chib ketgan.

- Muhammad Sulton (1446-1451) tanganing zarb etilgan yili, shahri o'chib ketgan.

- Temuriylarga oid yana 21 ta tanganing hukmdor nomi va zarb etilgan yili, shahri o'chib ketgan.

Ikkinchi to'plamdagi xazina 1966-yilda qadimiy ozarbayjon qishlog'i Bala-Mazradan, hozirgi Armanistonning Bosar-kechar viloyati hududidagi Go'kcha ko'li havzasidan, mahalliy aholi tomonidan topilgan va muzeyga topshirilgan. Xazina 1245 ta tangadan iborat bo'lib, ulardan 1030 tasi Shirvonshohlarga, 174 tasi Temuriylarga va 41 tasi Qora qo'yunlilarga tegishlidir.

Temuriylarga oid:

- Shohrux Mirzo (1404-1447), Abarko'hda, hijriy 824, 826-828 yillar, tangalar.

- Shohrux Mirzo (1404-1447), Astarada, hijriy 821-yil tanga.

- Shohrux Mirzo (1404-1447), Isfahonda, hijriy 820, 829-yillar, tangalari.

- Shohrux Mirzo (1404-1447), Koshonda, hijriy 827-yil, tanga.

- Shohrux Mirzo (1404-1447), Qumda, hijriy 823-yil, yil, tanga.

- Shohrux Mirzo (1404-1447), Yazdda, hijriy 835, 841, 845, 845-846, 851-yillar, tangalar.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Sovada, hijriy 825, 830, 837, 841-yillar, tangalari.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Sabzavorda, hijriy 833, 835-yillar tangalar.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Samarqandda, hijriy 827-828, 830, 839-yillar tangalar.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Soriyda, hijriy 848-849-yil, tanga.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Sirobda, hijriy 828-yil, tanga.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Sultoniyada, hijriy 847-yil, tanga.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Tabrizda, hijriy 821, 830, 848-yillar, tangalar.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Shayx Abu Is'hoqda, zarb etilgan yili aniq emas, tanga.
- Shohrux Mirzo (1404-1447), Sherozda, hijriy 828, 834, 838-yillar, tangalari.
- Sulton Muhammad (1446-1451), Yazdda, hijriy 851-yil, tanga.
- Sulton Muhammad, Sherozda, zarb etilgan yili aniq emas, tanga.
- Mirzo Ulug'bek (1446-1449), Hirotda, hijriy 852-yil, tanga.
- Abdulloh Mirzo (1450-1452), Samarqandda, hijriy 852-yil, tanga.
- Abusaid Mirzo (1452-1469), zarb etilgan yeri va yili buzulgan tanga.
- Abulqosim Bobur (1450-1456), zarb etilgan yeri va yili buzulgan tanga.
- Shoh Mahmud (1456-1458), zarb etilgan yeri va yili buzulgan tanga.
- Zarb ettirgan shaxsi, yeri va yili buzulgan 120 ta tanga.

XIV asr ikkinchi yarmida Ozarbayjon kurash maydoniga aylanib, kuchli uch turkiy ulus Oltin o'rda, Chig'atoy va Elxonlilarning Yaqin va O'rta Sharqdagi hukmronligi uchun kurash kechayotgan hudud edi. Ushbu kurashlar Amir Temurning bu hududlarda ulkan saltanati qurilishi bilan natijalandi. Sohibqiron Amir Temur hind yurushidan so'ng, ushbu hududlarda yangi kumush pul birligi "Tanga"ni joriy qildi. Uning vazni 6.2 gramm kumush bo'lib, bu davrgacha mazkur hududda yetti asrdan beri

musulmon olamining asosiy pul birligi bo'lgan dirhamning to'rttasiga teng edi. Pul birligi sifatida "Tanga"ni Temuriylarning harbiy-siyosiy ta'siri ostida bo'lgan Shirvonshohlar, Oq qo'yunlilar hamda Qora qo'yunlilar ham qabul qildilar. "Tanga"-Temuriylar davrida – "Miriylar" dirhami sifatida ham mashhur edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Нумизматика Азербайджана. Баку, 1997, 232 с.
2. Монеты Азербайджана. Баку, 2012, 357 с.
3. Монетное дело азербайджанского государства Сефевидов. Баку: 2014, 231 с.
4. Монетное дело государства Ширваншахов (VIII-XVI вв.). Баку, 2015.
5. Темурийлар тарихига оид манбалар: тавсиф, таржима, тадқиқот // Темурийлар тарихига оид манбалар: тавсиф, таржима, тадқиқот: Республика илмий-амалий конференция материаллари, (20 октябрь 2009 йил) / Масъул муҳаррир: Н.Н.Ҳабибуллаев. – 5-китоб. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 192 б.
6. Jumayev G.I. Oq qo'yunli etnonimining etimologiyasi. Scholar scientific journal. Volume 1, Issue 34. December. 2023. P. 85-90.
7. Jumayev G.I. Boyondurlar: tarixi va etimologiyasi. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2, Issue 17. December. 2023. p.215-219.
8. Jumayev G.I. "Audiomanuscript" – a project on the study of oriental manuscript sources. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2023. P. 50-52.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901539>

OZOD SHARAFIDDINOVNING TAHLIL MAHORATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Tulishova Gulzina Ravshanovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinovning o‘ziga xos badiiy tahlil mahorati muallifning “Hajviyotga sadoqat”, “Iste’dod jilolari”, “Zamon. Qalb. Poeziya” hamda “Istiqlol fidoyilari” kabi ilmiy tadqiqotlari misolida tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *Adabiyotshunos, munaqqid, maqola, taqriz, proza, hajviyot, tafakkur, badiiy tahlil, mahorat.*

Аннотация: *В статье представлены уникальные способности художественного анализа известного литературоведа Азода Шарафиддинова в произведениях автора «Верность юмору», «Сияния таланта», «Время. Сердце. Анализ проводился на примерах таких научных исследований, как «Поэзия» и «Защитники независимости».*

Ключевые слова: *Литературовед, критик, статья, рецензия, проза, юмор, мышление, художественный анализ, мастерство.*

Annotation: *In the article, the famous literary critic Azod Sharafiddinov’s unique artistic analysis skills are presented in the author’s “Loyalty to Humor”, “Glows of Talent”, “Time. Heart. It was analyzed using the examples of scientific researches such as “Poetry” and “Defenders of Independence”.*

Key words: *Literary critic, critic, article, review, prose, humor, thinking, artistic analysis, skill.*

KIRISH

Ozod Sharafiddinovning o‘ziga xos tili va uslubini quyidagi misollar orqali ham ko‘rishimiz mumkin: XX asr o‘zbek adabiyoti, xususan, proza va hajviyotda Abdulla Qahhor va Said Ahmadlarga izdosh bo‘lgan iste’dodli adiblarimizdan biri Ne‘mat Aminovga bag‘ishlangan “Hajviyotga sadoqat” nomli adabiy portret ham o‘quvchi diqqatini va qiziqishini orttiruvchi va unda iliq kayfiyat uyg‘otuvchi aniq-tiniq tavsif bilan shunday boshlanadi: “Ne‘mat Aminov bilan 1971 yilning boshida tanishgan edim. Oradan o‘n besh yil o‘tib, u haqidagi maqolani shu xotiradan boshlayotganimning boisi bor, albatta. O‘shanda Buxoroga borib, mehmonxonaga joylashgach, eski qadrdonim – iste’dodli shoir Toshpo‘lat Hamidga qo‘ng‘iroq qilib, menga hamroh bo‘lishini so‘radim. Toshpo‘lat Hamid ertasiga qelganda yonida o‘rta bo‘yli, miqti gavdali, qoramag‘iz, istarasi issiq bir yigit ham bor ekan. Savatdek jingalak sochlari uning boshini gavdasiga nisbatan kattaroq ko‘rsatib turardi. - Tanishing, - dedi Toshpo‘lat. – Umidli yoshlarimizdan: Ne‘mat Aminov! Bu nom menga tanish edi – besh-olti yil avval Abdulla Qahhor gazetada bosilgan bir hikoyani “O‘qidingizmi?– deb so‘ragan edi. – Ancha pishiq. Tili burro. Bo‘ladigan bola ko‘rinadi...”- deb, uning noyob iste’dodi borligidan bashorat qilgandi...”¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tez va aniq “nishonga tegadigan” bunday muqaddimalar tasvirlanayotgan qahramon-ijodkor shaxsi va ijodiga muayyan munosabat, qiziqish paydo qilishi bilan birga, ayni paytda, ular kitobxon qalbida ma‘lum bir insoniy his-tuyg‘u uyg‘otishi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, asrimiz boshida yashab, adabiyotimiz va tanqid-adabiyotshunosligimiz tarixida munosib o‘rin egallagan va jadidchilarimiz qatorida fidoyilik ko‘rsatib, qatag‘on qurboni bo‘lgan, ammo juda ozchilikkagina tanish bo‘lgan unutilmas siymolarimizdan biri - Otajon Hoshimni kitobxonlarga shunday tanishtiradi: “U G‘afur G‘ulomdan ikki yosh kichik, Abdulla Qahhordan ikki yosh ulug‘, Oybekka

¹ Ozod Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. –T.: Adabiyot va san`at, 1989-yil, 277-bet.

tengdosh edi. Shu do‘stlari bilan bir safda adabiyotga kirib kelgan va ilk maqolalari bilanoq jamoatchilikning e‘tiborini qozongan edi...”¹ Shu misollardan ham ko‘rinadiki, Ozod Sharafiddinov maqolalari va esselari sarlavhasi va debocha-muqaddimasi bilanoq ziyrak o‘quvchi e‘tiborini o‘ziga jalb etadiki, bu holat ham munaqqid ijodiy manerasi va ifoda uslubining o‘ziga xos bir jihati deyish mumkin.

Munaqqidning 1976-yili nashr etilgan “Iste‘dod jilolari” nomli kitobi ham uning “Zamon. Qalb. Poeziya” (1962) asari singari adabiy – tanqidiy tafakkur rivoji da quvonchli bir voqea bo‘lganligini adabiy jamoatchilik yaxshi eslaydi. Ushbu asarni varaqlar ekanmiz, dastavval undagi esse –badia va adabiy portretlarning nomlari diqqatimizni o‘ziga jalb etadi: “Cho‘qqi”, “Daryodil shoir”, “So‘z san‘atiga fidoyi sadoqat”, “Ul kan hayotning ilk sahifalari”, “Iste‘dod jilolari”.

NATIJALAR

Darhaqiqat, mashhur shoir, buyuk qalb egasi bo‘lgan akademik G‘afur G‘ulomga nisbatan “Daryodil shoir” degan iboradan ko‘ra ham munosibroq ta‘rif bormikan? Alloma ijodi adabiyotimizning eng yuksak va porloq bir “cho‘qqisi”ga qiyos qilingani-chi? Yoki o‘z asarlari bilan “millatni uyg‘otgan adib”, (O.Sharafiddinov) shuhrati olis-olislarga etgan eng sermahsul adibimiz Oybekning muqaddas so‘z san‘atiga bo‘lgan sevgi-sadoqatini “fidoyi” deb atamaslik mumkinmi? Yoki “Sarkor” so‘zini olaylik. Bu sarlavha o‘zining butun mazmuni va aniqligi bilan adabiy hayotimizda ko‘p yillardan beri karvonboshilik qilib kelgan ulkan adib, yirik davlat va jamoat arbobi Komil Yashin haqidaligi sezilib turadi.

MUHOKAMA

Yana bir misol: Ozod Sharafiddinovning Istiqlol yillari yaratgan asarlaridan biri Hamza hayoti va ijodiga bag‘ishlangan g‘oyat salmoqli va chuqur tahlil va yangi talqinlarga boy maqolasi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Ushbu maqolani ham Ozod Sharafiddinov o‘z uslubiga muvofiq ikki qismli nom bilan atagan. ”Istibdod qurboni

¹ Ozod Sharafiddinov. Istiqlol fidoyilari. –T.: Sharq, 1993-yil, 80-bet.

yoxud o'zligidan mahrum etilgan shoir"¹. Shu zalvorli sarlavhaning o'zidayoq mazkur maqola, to'g'rirog'i, tadqiqotning asosiy mazmuni va pafos-ruhi barq urib turibdi. Ya'ni Hamza Hakimzoda Niyoziydek yirik bir ijodkorning davr bilan bog'liq fojeiy qismati Ozod Sharafiddinovga xos teranlik, mantiqiy izchillik va tafakkur-mushohadalarning kengligi va erkinligi orqali yoritilgani aks etib turadi. Faqat texnik e'tiborsizlik orqasidami yo'l qo'yilgan juz'iy bir noaniqlikni eslatib o'tishga to'g'ri keladi. "Ijodni anglash baxti" kitob mundarijasida ushbu maqola "Istiqlol qurboni..." degan sarlavha bilan, ya'ni Istibdod so'zi o'rniga Istiqlol deb yozilgan. Kelgusi nashrlarda ushbu juz'iy kamchilik to'g'rilanishiga umid bildirib qolamiz.

Biroq o'zbek adabiyotshunosligida so'nggi vaqtlarga qadar badiiy adabiyotning tili masalalariga befarq qarash hollari mavjud. Biror badiiy asarning tilini o'rganishga bag'ishlangan maxsus maqolalarda esa ko'pincha til asarning umumiy g'oyaviy yo'nalishidan ajratib olingan holda tekshiriladi, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga nisbatan lingvistik yondashuv usullari ustun turadi.

XULOSA

Adabiyotni insonshunoslik deyilar. Adibning yozuvchilik nigohi qancha o'tkir bo'lmasin, tafakkur quvvati qancha baquvvat bo'lmasin, inson tabiatining siru asroridan har qancha bohobar bo'lmasin, qalami o'tmas, uslubi to'mtoq, tili g'aliz bo'lsa, uning olijanob niyatlari qog'ozda qolib ketaveradi. Adabiyotda jinday nom chiqargan, uning rivojida sal bo'lsa-da iz qoldirgan qalam sohiblari borki, ularning hammasi yozuvchi mahoratining ko'p qismini til mahorati tashkil qilishini til adabiyotning birinchi elementi, asosiy material ekanini, chinakam yozuvchi hamisha so'z mulkining sultoni, so'z lashkarining sarkardasi ekanini qayta-qayta ta'kidlangan.

¹ Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004-yil. (Mazkur maqola ushbu kitobdan o'rin olgan)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901550>

O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION MUHITI

Yusupov Ne‘matillo Saidturaevich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

“Tarmoq iqtisodiyoti” kafedrası assistenti.

***Annotatsiya:** Tezida hozirgi sharoit va so‘nggi paytlarda amalga oshirilgan islohotlar O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhiti, investitsiya muhiti bo‘yicha va xorijiy investorlarning mamlakatimiz sa‘y-harakatlariga ishonchi o‘rganildi va tahlil qilingan. Bundan tashqari, alohida ijobiy mutaxassislik ning xorijiy davlatlar, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasining ayrim mamlakatlari mumkin O‘zbekiston tomonidan yaqin kelajakda o‘zining keyingi yo‘nalishida amalga oshiriladi islohotlar muhokama qiladilar va qulay sarmoya iqlim hisoblanadi a uchun zaruriy shart barqaror rivojlanmoqda iqtisodiy rivojlanish, jalb qilish investitsiyalar hududlar va tarmoqlarga, tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, investitsiya, intensiv, potensial, axborot-kommunikatsiya, inflyatsiya.*

2017 yilda, baham ko‘ring to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoya jami sarmoya ni tashkil etdi uchun 20,4%, bilan kattalashtirish; ko‘paytirish ning 40,7% dan oldingi yil. In shartlari ning poytaxt intensivlik, hisoblangan tomonidan xalqaro mutaxassislar, O‘zbekiston hisoblanadi a jozibali mamlakat uchun xorijiy bevosita sarmoya. respublika hisoblanadi orasida 2016/2017 yillarda tartibga solish orqali biznes faoliyatini yaxshilashda eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar. Biroq, bir qator uchun mamlakat reyting qiymatlari ko‘rsatkichlar emas yuqori yetarli, investorlarning investitsion faolligini

pasaytiradi va ichida konteksti Jahon o'yinchilarining yangi ishlab chiqarish loyihalariga sarmoya kiritishdan qayta yo'naltirilishi, ayniqsa, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda biznesni qayta tashkil etish va qayta qurish. Shunday qilib, global investitsiya siyosatining hozirgi sharoitlari talab qiladi muhim sa'y-harakatlar uchun jalb qilish sarmoya ichida rivojlanmoqda iqtisodiyotlar, shu jumladan O'zbekiston, tomonidan yaratish eng qulay sarmoya iqlim.

Potensial investorlar mamlakatdagi investitsiya muhitining sifatini odatda turli ma'lumotlarni o'rganib, kuzatib boradilar analitik, tadqiqot kompaniyalari va agentliklari. Dunyo Bankning Biznes yuritish reyting hisoblanadi keng tarqalgan orasida ular. Reyting ko'rsatkichlari aks ettiradi biznes muhitining rivojlanish darajasi, turli mamlakatlarda biznes yuritish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish. Ishbilarmonlik muhitining yuqori reytingi mamlakatda eng ko'p yaratilganligini anglatadi qulay sharoitlar iqtisodiy rivojlanish uchun.

Bunga hujjatlarni rasmiylashtirish vaqtini va ularning sonini qisqartirish, xarajatlarni qisqartirish bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli ishlar yordam berdi ushbu tartib-qoidalar bilan bog'liq bo'lib, "yagona oyna" xizmatlarini tashkil etish, kreditni qayta yo'naltirish tufayli institutlar kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ehtiyojlarini to'liq qondirish, valyuta ayirboshlashni liberallashtirish davlat organlari faoliyatida bozor, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari organlar va boshqalar. Indikativ natijalar soliq va majburiy to'lovlarni hisobga olgan holda soliqqa tortish ko'rsatkichi reytingini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida chegirmalar, shuningdek, korxonalariga ma'muriy yuk. Agar ushbu ko'rsatkich bo'yicha 2013 yil reytingida mamlakat tartiblangan 161, in reyting ning 2018 - allaqachon 78 joy.

O'zbekiston ega a muhim tanasi ning qonunlar va qoidalar maqsad qilgan da himoya qilish biznes va sarmoya jamiyat. Asosiy qonunchilik tartibga soluvchi musobaqa o'z ichiga oladi Qonun yoqilgan Musobaqa va Cheklovlar ning Monopolistik faoliyat (2016), "Raqobat to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati

erkinliklarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar Faoliyat, Xususiy shaxslar to'g'risidagi qonun Korxonalar (2003 yil, oxirgi marta 2017 yilda yangilangan), Investitsiyalar to'g'risidagi qonun Faoliyat va a soni farmonlar, qarorlar va ko'rsatmalar.

2016 yil oxirida O'zbekiston hukumati biznesni yaxshilash va tartibga solish zarurligini ochiq tan oldi va hali ham murakkab, ko'pincha bir-biriga zid va to'liq mos kelmaydigan investitsiya qonunchiligi. xalqaro normalar. Ba'zi hollarda hukumat korxonalardan farmonlar yoki ko'rsatmalarga rioya qilishni talab qilishi mumkin ommaga ochiq bo'lmagan. Soliq va tartibga solish choralari bilan bog'liq muammolarni oldini olish uchun xorijiy investorlar ko'pincha xavfsizlikni ta'minlaydilar bevosita Prezident tomonidan tasdiqlanadigan Vazirlar Mahkamasining qarorlari orqali davlat imtiyozlari. Biroq, bular bor bo'lgan osongina qaytarib olinadigan.

Hisobotga ko'ra, O'zbekiston 190 davlat orasida 76-o'rinni (o'tgan yili 74-o'rinni) egallagan. Osonlik ko'rsatkichi mamlakatda tadbirkorlikni joriy etish 67,4 (66,33) ni tashkil etdi. Shu bilan birga, O'zbekiston davlatlar orasida 12-o'rinni egalladi "Korxonalarni ro'yxatga olish", "Elektr ta'minoti tizimiga ulanish" bo'yicha – 35 ta, "Majburiy ijro shartnomalar" – 41, "Kreditlar olish" – 60, "Minoritar investorlarni himoya qilish" – 64, "Soliq solish" – 64, "Ro'yxatdan o'tish mulk" – 71, "To'lovga layoqatsizlik to'g'risidagi qaror" – 91, "Qurilish uchun ruxsatnomalar olish" – 134 va "Xalqaro savdo" - 165.

Taqqoslash uchun biz rivojlangan davlatlardan birini "Biznes yuritish" reytingi bo'yicha o'rganamiz. Masalan, Singapur asosan ochiq investitsiya rejimi bilan tavsiflangan ochiq, kuchli savdoga bog'liq iqtisodiyotni saqlab qoladi; erkin bozorni qo'llab-quvvatlash va Singapurning iqtisodiy faoliyatini faol boshqarish uchun hukumatning qat'iy majburiyati bilan rivojlanish. Jahon bankining "Biznes yuritish 2017" hisobotida Singapur dunyodagi ikkinchi eng oson davlat deb topildi. biznes yuritadigan mamlakat. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan 2017-2018 yillardagi Global raqobatbardoshlik hisoboti Singapur jahon miqyosida uchinchi eng raqobatbardosh

iqtisodiyot sifatida qayd etilgan. Singapur odatda eng kam korrupsiyaga uchragan davlatlar qatoriga kiradi mamlakat Osiyoda va bitta ning kamida buzuq ichida dunyo, va faol amalga oshiradi uning mustahkam korrupsiyaga qarshi kurash qonunlar.

Singapurning qonunchilik bazasi va davlat siyosati odatda xorijiy investorlar uchun qulaydir. Xorijiy investorlar qo'shma korxonalar tuzish yoki boshqaruv nazoratini mahalliy manfaatlarga, mahalliy va xorijiy manfaatlarga topshirish talab qilinmaydi investorlar bor Mavzu uchun bir xil Asosiy qonunlar. Alohida dan tartibga soluvchi talablar ichida biroz tarmoqlar (ma'lumotnoma Cheklovlar yoqilgan Milliy Davolash va Boshqa Cheklovlar), hukumat ekranlar sarmoya turli rag'batlantirish rejimlariga muvofiqlikni aniqlash maqsadida takliflar. Singapur hech qanday cheklovlar yo'q daromad yoki kapitalni qayta investitsiyalash yoki repatriatsiya qilish to'g'risida. Xalqaro arbitrajni o'z ichiga olgan sud tizimi va mediatsiya markazlari va xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlanadi shartnomalar va qarorlarning muqaddasligi odatda deb hisoblanadi shaffof bo'ling va samarali majburiy.

Chet el investitsiyalarini rag'batlantirish to'g'risidagi qonun (FIPA) Respublikada xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi asosiy qonundir Koreya. FIPA va tegishli qoidalar tadbirkorlik faoliyatini ochiq, shartli yoki qisman cheklangan yoki deb tasniflaydi xorijiy investitsiyalar uchun yopiq. Koreya Respublikasi qisman chet el orqali investitsiyalarni saqlab qolishga ustuvor ahamiyat beradi Investitsion ombudsman. Ushbu lavozim Prezident tomonidan topshiriladi va shikoyatlarni ko'rib chiqish organiga rahbarlik qiladi: xorijiy firmalarning muammolari bo'yicha ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi; va dan hamkorlikni so'raydi tegishli ma'muriy organlarga islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi; takomillashtirishga qaratilgan yangi siyosatlarini taklif etadi xorijiy sarmoya rag'batlantirish tizimi; va olib boradi tashqariga boshqa zarur vazifalar yordam berish investor kompaniyalar.

2019-yil 5-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qaror qabul qildi Jahon banki va biznes yuritishning yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilash Xalqaro moliya korporatsiyasi. Qaror asosida unga muvofiq tartib tasdiqlandi Jahon

bankining yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasi reytingini yaxshilashning maqsadli ko‘rsatkichlari va “Biznes yuritish” xalqaro moliya korporatsiyasi respublikani reytingda 20-o‘rinni egallashini ko‘zda tutadi tomonidan 2022 – “Yaxshilash Biznes Boshqaruv – 2022”.

Shuningdek, xorijiy investorlarni jalb etish va milliy investorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator imtiyozlar belgilandi. Sifatida Davlatimiz rahbari “Faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish orqaligina iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishish. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa bizga imkon beradi izchil yig‘ilganlarni hal qilish muammolar ichida ijtimoiy shar.”

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim 1996 yil, 42-modda.
2. Prezidentning “Investitsiyalarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekiston Respublikasidagi iqlim”. 2018 yil 1 avgustdagi UP-5495-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda O‘RQ-son Qonuni 598 "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida" 63-modda.
4. XVFnning tanlangan qarorlari va tanlangan hujjatlari, qirqinchi soni - VIII-modda, XVJning yuridik departamenti tomonidan tayyorlangan, № 2-sonli qaror.1034-(60/27), 1960 yil iyun, 2019 yil 30 aprel holatiga yangilangan.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-oktabrdagi Qonuni.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901560>

ADABIY TILNING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

Tursunov Mirzohid Ikromjon o'g'li

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada adabiy til umumxalq tili (milliy til)ning oliy shakli ekanligi va uning sotsiolingvistik xususiyatlari, standart til va adabiy tilning ichki yashash shakllari, me'yorlari haqida ilmiy mushohadalar keltirilgan. Shuningdek, adabiy tilning yuzaga kelishi va yaratilishi davlat hamda jamiyatchilik tarixi bilan uzviy bog'liqligi, adabiy tilning umumxalq ommaviy aloqa vositasi ekanligi, ushbu tilning jahon tilshunosligida sotsiolingvistik yondashuv asosida o'rganilishi haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy til, kod, subkod, sheva, standart til, og'zaki adabiy til, yozma adabiy til, adabiy tilni demokratlashtirish, adabiy me'yor.*

Tilshunoslikda har qanday muloqot vositasini *kod* deb atash mumkin. "Kod" termini bilan bir qatorda zamonaviy tilshunoslikda "subkod" termini ham qo'llanadi. Hozirgi o'zbek milliy tilining subkodlari biri adabiy tildir. Adabiy til muayyan bir millatning tarixiy jihatdan shakllangan umumxalq tiliga asoslanadi va u millat darajasida shakllangan til jamoasining umumiy tiliga aylanadi. Adabiy til u tarqalgan hududda istiqomat qiluvchi barcha xalq uchun tushunarli bo'ladi. Adabiy tilda boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar (direktor, rektor, jalyuza, kompyuter), sheva xos so'zlar (mengzamoq) ham bo'lishi mumkin. Adabiy til o'z grammatikasiga, leksikasiga va adabiy normasiga ega. Adabiy tilda turli sohalarga doir atamalar, terminlar,

dialektizmlar (shevalarga xos boʻlgan soʻzlar), kasb-hunar va boshqa sohalarga aloqador boʻlgan soʻzlar mavjud boʻladi.

Adabiy til milliy tilning soʻz ustalari, ijodkorlar va tilshunos-mutaxassislar tomonidan ishlangan, sayqal berilgan, maʼlum meʼyorga solingan, ogʻzaki va yozma shakllari rivojlangan, uslubiy tarmoqlangan, adabiy meʼyorlari barqarorlashgan hamda universallashtirilgan, qoʻllanishi majburiylashgan va xalqni birlashtirishdek ijtimoiy vazifani bajarishga qodirlashgan yashash shakli. Adabiy til milliy til zaminida yuzaga keladi va ayni milliy tilning oliy shakli hisoblanadi.¹

Tilshunos olim Mustaqim Mirzayev adabiy tilga berilgan taʼriflardan xulosa qilib, unga ushbu oʻxshatishni qilgan edi: “Adabiy til — umumxalq tilidan yasalgan guldasta”dir. Demak, oʻzbek adabiy tili sheva va lahjalar bir butunligidan» iborat boʻlgan oʻzbek milliy tilidan farqlanadi. Adabiy til jamiyatning ilm-fan, taʼlim, adabiyot, siyosat, huquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilotlar va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy tilning oliy shaklidir. Adabiy tilga nutq jarayonida qoʻllanadigan dialektizmlar, soʻzlashuvga xos boʻlgan soʻzlarning ishlatilmasligi xosdir.

Adabiy til atamasiga sinonim sifatida qoʻllanuvchi **standart til** fonetik, morfemik, leksik va grammatik jihatdan meʼyorlashtirilgan til shakli hisoblanadi. Standart til lisoniy birliklari belgilangan standart adabiy meʼyorlarda qoʻllashga xoslangan til shakli boʻlib, adabiy tilni shakllantirishdagi asosiy tushunchalardan biri.²

Ingliz tilshunosligi adabiy til *standard language*, *standard English* deb ham nomlanadi. Shuningdek, *standartlashgan adabiy til* termini ham qoʻllaniladi. Standart ingliz tili – bu ingliz tilida soʻzlashiladigan barcha sohalarda qiyinchiliksiz tushuniladigan muloqot va grammatikaga ega boʻlgan til. Oddiy ingliz tilida esa dialektlardan foydalaniladi va murakkab grammatika ega boʻladi. K. Naringzning fikricha, standartlashgan adabiy tilning mavjudligi har qanday rivojlangan jamiyat uchun xosdir. Chunki har bir rivojlangan davlat xalqaro tashkilotlar konferensiyalari

¹ Odilov Y. Sotsiolingvistika terminlarining izohli lugʻati. –Toshkent. 2024. B. 1.

² Odilov Y. Sotsiolingvistika terminlarining izohli lugʻati. –Toshkent. 2024. B. 85.

yoki anjumanlarida adabiy tilda nutq soʻzlashi oʻz milliy til (Inglizlarda ushbu atama *davlat tili* atamasiga nisbatan ham qoʻllanadi)ning qanchalak rivojlanganini koʻrsatib beradi.

Adabiy tilga “til normasi” (standart til) deb tasnif bersa ham boʻladi. Bu tushuncha keng jamoatchilik tomonidan qabul qilingan va oʻquv va ilmiy muassasalarida qoʻllaniladi. Masalan, AQShda koʻplab mintaqaviy, etnik va jamoatchilik shevalari mavjud. Biroq hukumat hujjatlari, ilmiy maqolalar, darsliklar va rasmiy hukumatga bogʻliq ommaviy axborot vositalarida amerikacha ingliz adabiy tilida yoziladi.¹

Adabiy til ogʻzaki va yozma shaklda boʻladi. Adabiy tilning ogʻzaki shaklida uning orfoepik normasi oʻz ifodasini topgan boʻladi. Adabiy tilning ogʻzaki shakli yozma shaklidan avval hosil boʻladi. Adabiy tilning ichki yashash shakllarini 2 turga ajratish mumkin. Bular:

Ogʻzaki adabiy til tarixan xalq ogʻzaki nutqi asosida shakllangan, muayyan mamlakatda adabiy talaffuz meʼyorlari va qoidalariga binoan amal qiladigan, ommaviy axborot vositalari (radio va televideniye)da keng foydalaniladigan milliy til yashash shakllaridan biri, subkod. Ogʻzaki adabiy tilning yozma adabiy til singari sheva va dialektlardan farqi sof lingvistik jihatdan emas, balki sotsiolingvistik jihatdandir.

Yozma adabiy til Muayyan mamlakatda yozma adabiy meʼyorlar va qoidalarga asoslangan holda amal qiladigan, ommaviy axborot vositalari (gazeta va jurnal)da keng foydalaniladigan, qoʻllanishi rasman tartibga solib turiladigan milliy til yashash shakllaridan biri, subkod.

Adabiy til milliy tilning asosida shakllanadi. Milliy tilning yozma va ogʻzaki shakllari unda soʻzlashuvchi xalq uchun tushunarli va umumiy boʻlgan mezonlarga ega boʻladi. Shu sababli uni davlat tili yoki rasmiy til sifatida qabul qilinadi. Davlat tili ommaviy axborotda, matbuotda, sud va prokuraturada, barcha davlat tashkilotlari, oʻquv maskanlari va boshqa muassasalarda qoʻllanadi. Tilni xalq yaratgan va uning adabiy va davlat tili sifatida qoʻllovchisi ham xalqdir. Davlat tilining rivojlanishini,

¹ <https://daryo.uz/2018/12/17/o%25ca%25> Oʻzbek adabiy tili vs toshkent shevasi kim ustun poygasi qachon tugaydi.

turli sohalarda qo'llanishini va tilning adabiy me'yorlariga amal qilinishini ta'minlash til siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Tilning og'zaki va yozma shakli vaqt o'tishi bilan jiddiy o'zgarib ketganda yoki adabiy til bir-ikki dialekt asosidagina shakllantirilib, boshqa dialektlar imkoniyatlaridan foydalanilmaganda jamiyatda adabiy tilni demokratlashtirish harakati boshlanadi. Muayyan mamlakat aholisi qo'llayotgan til bilan shu mamlakat aholisiga xizmat qilishi lozim bo'lgan adabiy til o'rtasida katta farqlanish yuzaga kelganda adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish taqozosi bilan amaldagi lisoniy me'yorlarni o'zgartirish, soddalashtirish **adabiy tilni demokratlashtirish** deb nomlanadi. Demokratlashtirish jarayonlari grafika, fonetika, leksika va sintaksis doirasida bo'lishi mumkin.

Tilshunos F.P.Filin sovet tilshunoslarining adabiy tillarni o'rganish tajribasini umumlashtirib, rus, polyak, ingliz, nemis, frantsuz, ispan va boshqa ko'plab tillarning yettita adabiy xususiyatlarini keltirib o'tdi. Ushbu belgilar quyidagilar: 1) qayta ishlangan; 2) me'yorlashtirilgan; 3) barqaror; 4) jamiyatining barcha a'zolari uchun majburiy; 5) funksional uslublarning mavjudligi ; 6) universal, ya'ni muloqotning barcha sohalariga (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy-siyosiy madaniy hayot, fan, kundalik hayot va boshqalar); 7) og'zaki va yozma shaklining mavjudligi.¹ Adabiy tilning xususiyatlari, albatta, bu bilan cheklanib qolmaydi. Ammo ushbu xususiyatlarning bari barcha adabiy tillar uchun taalluqli emas.

Ilmiy lingvistik adabiyotlarda adabiy tilning asosiy xususiyatlari esa quyidagicha ajratib ko'rsatilgan:

- 1) qayta ishlash;
- 2) barqarorlik;
- 3) majburiy (barcha ona tilida so'zlashuvchilar uchun);
- 4) normallashtirish;
- 5) funksional uslublarning mavjudligi.²

¹ Филин Ф.П. Истоки и судьбы русского литературного языка.—М.:Наука,1981.—С.176.

² <https://cabinetry.ru/uz/otlichitelnoi-chertoi-literaturnogo-yazyka-yavlyaetsya-literaturnyi-yazyki-ego.html>

Adabiy til milliy tilning boshqa shakllaridan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi:

1) *kodlashgan tarmoq*: u barcha adabiy tilda so'zlashuvchilar uchun yagona va umummajburiy bo'lib, unga turg'un me'yor xosdir va bu me'yor ma'lum maqsadda madaniylashadi;

2) *yarim funksional tarmoq*: undan inson faoliyatining turli sohalarida foydalaniladi. Adabiy til har xil sohalarda turli vazifalarda ishlatilishiga ko'ra a) badiiy-adabiy (proza, poeziya, dramaturgiya) tili; b) adabiy tilning og'zaki shakli; a) funksional uslublar (ilmiy, rasmiy, publitsistik, diniy)ga ajraladi.

3) adabiy til hududiy dialektlar, sodda so'zlashuv, ijtimoiy va kasbiy jargonlarga nisbatan ijtimoiy jihatdan nufuzli hisoblanadi. Madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan adabiy tilda milliy til kommunikativ tarmoqlarining barcha vakillari so'zlashadi.¹

Tilshunos – mutaxassislar, yozuvchi-shoirlar hamda so'z ustalari tomonidan adabiy tilni qo'llash bilan bog'liq ishlab chiqilgan talaffuz va imlo me'yorlaridan mamlakat aholisining doimiy foydalanishi natijasida bu lisoniy me'yorlarning turg'un hamda o'zgarmas holga kelib qolganligiga **adabiy tilning barqarorlashganligi** deyiladi.

Me'yor – tilning yashash shaklidir. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tuziladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyati taraqqiyoti bilan rivojlanib o'z qonun qoidalarini mustahkamlab boradi. Uning shakllanishi va taraqqiyotiga tilning tarkibiga kiruvchi lahja, shevalar turlicha hissa qo'shadilar. Qaysi hududda savdo, fan, madaniyat taraqqiy etgan bo'lsa, me'yorga ham o'sha hududdagi shevalarning ulushi ko'proq bo'ladi. Me'yor til qurilishi unsurlarining hammasiga tegishli. Adabiy til, uning me'yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarur. Tilshunos olim Yorqinjon Odilov adabiy tilning me'yorga solinganligi to'g'risida quyidagicha ta'rif bergan:

Adabiy tilning me'yorga solingaligi deb tilshunos-mutaxassislar, yozuvchi-shoirlar hamda so'z ustalari tomonidan til taraqqiyotining muayyan bosqichida adabiy

¹ Usmanov Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika: O'quv qo'llanma. –Toshkent.: Universitet, 2014. B. 23.

tilga xos orfoepik, orfografik, leksik, grammatik va uslubiy me'yorlarning ishlab chiqilganligiga aytiladi. Adabiy tilning bu jihati ma'lum bir sheva hamda dialektlarni asos qilib olingan holda tarkib toptiriladi.¹

Adabiy til me'yorlarida orasida adresat yoki adresantlar uchun asosan fonetik, imlo, punktuatsion va uslubiy me'yorlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, nutq sharoitiga qarab til birliklarining eng ma'qulini qo'llash adabiy tilning uslubiy me'yorlari hisoblanadi. Sinonimlardan noto'g'ri foydalanish, so'z takrori, ayrim eskirgan so'zlarni qo'llash nutqni uslubiy jihatdan buzadi.

Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi. Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtayi nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (mas, Italiya, Indoneziya va b.)da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda.

Adabiy tilning umummajburiyligi muayyan adabiy tilning keng tarqalishi, lisoniy va nutqiy me'yorlarning yagonaligi va yaxlitligini belgilovchi omil; shunday tilning ko'pchilik tomonidan qabul qilinganligi, jamiyat a'zolari tomonidan ma'qullanganligi, qayerda yashashidan qat'i nazar, foydalanuvchilar uchun yagona va bir xilligini ko'rsatuvchi jihat.

Adabiy til (nutq) me'yorlashgan. U xalq shevalaridan ustun turadi va uning me'yorlariga qat'iy rioya qilish shu tilda (xalqqa) so'zlovchilar, turli sheva va lahja vakillari orasida rasmiy muloqot uchun shart. Adabiy til (nutq) umumxalq madaniyati saviyasining bir ko'zgusi. Yozma va og'zaki nutqda adabiy me'yorga rioya qilish adresantning madaniy saviyasini belgilaydi.

Adabiy tilning universalligi tilning o'zi xizmat qilayotgan jamiyat a'zolarining hududiy va ijtimoiy mansubligi, qaysi soha vakili ekanligidan qat'i nazar, birdek qo'llanish, umumiy foydalanish xususiyati. Adabiy til tarqalishining yetakchi manbalari ta'lim (maktab, o'quv yurtlari va h.k.) hamda ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio va televideniye) hisoblanadi.

¹ Odilov Y. Sotsiolingvistika terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent. 2024. B. 2.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Филин Ф.П. Истоки и судьбы русского литературного языка.— М.:Наука,1981.—С.176.
2. Odilov Y. Sotsiolingvistika terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent. 2024. B. 1.
3. Usmanov Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika: O‘quv qo‘llanma. –Toshkent.: Universitet, 2014. B. 23
4. Х.Дониёров, Б.Йўлдошев “Адабий тил ва бадиий стиль” Тошкент -1988. 9-бет
5. <https://cabinetry.ru/uz/> otlichitelnoi chertoi literaturnogo yazyka yavlyaetsya literaturnyi yazyki ego.html
6. <https://daryo.uz/2018/12/17/o%25ca%25> O‘zbek adabiy tili vs toshkent shevasi kim ustun poygasi qachon tugaydi.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901566>

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE EFFECTS OF USING MODERN COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL PROCESSES

Abdirashidova F

KSU, Faculty of Foreign Languages,
student of 02-185 group

Xolmirzayeva M

KSU, Faculty of Foreign Languages,
student of 02-185 group

Abstract: *This article describes the negative aspects and advantages of the use of modern communication technologies in educational processes in relation to the age category of learners.*

Keywords: *technology, smartphone, device, IT, mobile, teletext, monitor, reader, student, knowledge, education, influence, skill, advanced, global.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonlarida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni bilim oluvchilarning yosh kategoriyasiga nisbatan ta'sirlarining salbiy jihatlari va afzalliklarining o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, smartfon, qurilma, IT, mobil, teletext, monitor, o'quvchi, talaba, bilim, ta'lim, ta'sir, ko'nikma, ilg'or, global.*

It is not for nothing that the 21st century is called the age of technology. Not only all over the world, in our society, IT technology: mobile phone, i.e. smartphones,

television, computer and other such artificial intelligence is available in every household. Today, technology plays an important role in our lives and our daily life cannot be imagined without them.

Today, one of the main goals is the introduction of new technologies and innovations into the education system, as well as the fundamental reform of the education sector. In the practice of world pedagogy, a number of scientists, including M.V. Bulanova Toporkova and others evaluate the knowledge of the teacher in the field of information technology with the following qualities¹:

- 1) ability to evaluate and integrate the experience of activity in the modern information environment;
- 2) striving to develop personal creative qualities²;
- 3) having a high level of general communicative (interaction) culture;
- 4) the presence of theoretical concepts and experience of organizing actions in the media;
- 5) the need for self-reflection (analysis of one's mental state);
- 6) mastering the culture of information reception, selection, storage, restoration, presentation, its transformation, transmission and integration.

Pedagogist-scientist V.K. Selevko considers the teacher's computer literacy to be an important part of the content of computer technology and includes the following in its composition³:

- to know the basic concepts of informatics and computer technology;
- to know the general structure and functional capabilities of computer equipment;
- knowledge of modern operating systems;
- to know the shells and operating tools of modern general-purpose software (Norton Commander, Windows, etc.) and master their tasks;
- mastering at least one text editor;

¹ <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/talim-soxasida-internet-texnologiyalaridan-foydalanish/>

² [СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, \(naukaip.ru\),](#)

³ <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/talim-soxasida-internet-texnologiyalaridan-foydalanish/>

- having basic ideas about programming algorithms, languages and packages;
- initial experience of using applications that perform utilitarian tasks.

As a result, the terms "pedagogical technology" and "educational technology" appear. These processes have become one of the main links of imparting and acquiring knowledge. However, specific problems are observed in the application of these processes in the primary classes of school education, and they lead to the emergence of the following questions:

- 1) How appropriate is it to use new technologies in primary schools?
- 2) To what extent is the use of devices such as smartphones or computers during classes in primary classes compatible with children's health (eyesight, speech, communication skills, etc.) and mental health?
- 3) In what ways and by whom are the concepts of the skills and culture of using smartphones and computer technologies explained to young children in primary classes?

Today, the number of students who have smartphones in their hands is much higher. Analysis shows that every parent wants to educate their child in the "oldest", "most effective", "most modern", specialized or intensive school or classes. Therefore, in this direction, primary school students should use modern technologies and various gadgets during all activities during the day. Because using new pedagogical technology in the classroom, technological gadgets play an important role in providing new creative knowledge. In particular,

- There is a requirement that every class in schools be equipped with the latest technologies: teletext, monitor, special hearing aids or computers for language learning textbooks.
- Conducting regular supervision of teachers so that students are not distracted while using smartphones or electronic devices, etc.

According to our observations, it was found that the above-mentioned modern information technologies have a direct impact on the physical and mental condition of young children studying in primary school.

Because the increase in the time and extent of the use of gadgets by young children in intensive classes creates unique inconveniences.

The purchase of these devices is not only a waste of money to improve the quality and maintenance of Internet networks, but excessive use beyond the norm is harmful to the health of young children, that is, elementary school students. has an effect. In particular, it leads to blurred vision, development of the neck spine, hearing and nervous system, and constant fatigue and weakness. Also, our research shows that young children are increasingly dependent on smartphones and various electronic devices. This situation can cause young children to experience various diseases, unfortunate events, or to grow up early without experiencing the happy moments of the child.

However, according to some psychological sources, it is emphasized that the phone and gadgets do not pose a danger to the child, but on the contrary, they help the development of the brain and strengthen the attention. devices can only be used under the supervision of parents or adults. Some sources and psychological studies in this direction deny this theory and write that it leads to a disease such as nomophobia.

Based on our observations and the above-mentioned points, we can conclude that it is appropriate to limit the use of gadgets to elementary school students during the lesson. Because it is desirable for children to think logically, imagine and understand the environment and existence in a natural state, without artificial intellects.

However, we believe that it is appropriate for pupils and students to use various modern computer technologies, smartphones and gadgets in higher grades, vocational colleges, technical schools and higher education institutions. Because today, the use of modern educational technologies, interactive, introductory methods in the education system has a positive effect. Because in this direction, there are several opportunities for technology to have a positive effect on education, which can be seen in the following:

➤ Increasing IT knowledge, i.e. digital literacy, as information communication and technology are rapidly developing today, our students will have the opportunity to strongly develop knowledge skills of technology and digital literacy;

➤ The increase in opportunities, that is, saving time, plays a big role in improving the efficiency of students' learning. Reduces time, effort, and money. It also helps to improve educational achievements for professors and teachers.

➤ It paves the way for global education - leads to online communication and communication, exchange of information. It is like a bridge to world cultures. This, in turn, leads to an increase in the capabilities of not only students, but also professors and teachers.

In conclusion, it can be noted that in today's development, no field can be imagined without technology. Therefore, in accordance with the decision PQ-5117 of the President of our country Sh.M. Mirziyoyev dated May 19, 2021 "On measures to bring the activities of the Republic of Uzbekistan to a new level in terms of quality" It is important to use educational techniques, artificial intelligence and interactive methods in order to effectively educate students and students studying in higher classes, vocational colleges, technical institutes and higher education institutions.

Including:

➤ Online and distance education;

➤ Video and audio tutorials;

➤ Multimedia;

➤ Creation of new modern technologies of teaching, such as electronic libraries, is one of today's urgent issues.

It is worth noting that under the leadership of our President Sh.M. Mirziyoyev, the Youth Affairs Agency developed the Ibrat Children project, which is related to mutual artificial intelligence. The Ibrat Academy mobile application was developed based on the Ibrat Children project. One of the important goals of this program is to train advanced global people in our country.

REFERENCES

1. <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/talim-soxasida-internet-texnologiyalaridan-foydalanish/>
2. СОВРЕМЕННЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ: сборник статей XXVII Международной научно-практической конференции. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2022. – 186 с. (naukaip.ru),
3. <https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/talim-soxasida-internet-texnologiyalaridan-foydalanish/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901574>

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING OBYEKTIV ZARURLIGI

M.E.Shoturayeva

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi
huzuridagi Fiskal instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi afzalliklari va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning obyektiv zarurligi, ushbu yo‘nalishda yaratilgan shart-sharoitlarning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, biznes, tadbirkorlik, raqobat, afzallik, investitsiya, davlar, kafolat, imtiyoz, soliq, kredit, reyting.

Аннотация. В данной статье описаны преимущества малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях либерализации экономики, объективная необходимость их поддержки со стороны государства, а также особенности условий, созданных в этом направлении.

Ключевые слова: экономика, бизнес, предпринимательство, конкуренция, преимущество, инвестиции, возможности, гарантия, льгота, налог, кредит, рейтинг.

Abstract. This article describes the advantages of small business and private entrepreneurship in the conditions of economic liberalization, the objective necessity of their support by the state, and the specific features of the conditions created in this direction.

Key words: economy, business, entrepreneurship, competition, advantage, investment, opportunities, guarantee, privilege, tax, credit, rating.

KIRISH. Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mavqeyi hamda ko‘lami kundun-kunga oshib bormoqda. Chunki, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ularning iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, kichik biznesning raqobat kurashidagi ustunligi va tez moslashuvchanligi xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. Aynan, shiddat bilan rivojlanish darajasini o‘zining ustuvor vazifasi sifatida belgilagan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, kambag‘allikni qisqartirish, yangi ishchi o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish, sog‘lom raqobat muhitini yaxshilash, xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘ziga xos samarali afzalliklaridan foydalanish davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarga bevosita bog‘liq. “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq, 2024-yilda kambag‘allik darajasini 10,0 foizgacha tushirish rejalashtirilgan¹.

TAHLIL VA NATIJA. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznesning raqobatdosh ustunliklarni qo‘lga kiritish orqali tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan faoliyatini rivojlantirish uchun tegishli institutsional sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati jamiyat va inson hayotining turli sohalaridan biri sifatida o‘zgarimas holda qolmaydigan va o‘zgarishlarga uchragan ma’lum bir iqtisodiy tuzilma doirasida amalga oshiriladi²

Shu o‘rinda alohida qayd etish kerakki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi qonunchilik bazasining mukammalligiga, raqobat darajasiga,

¹ <https://uzreport.news/society/2023-yilda-ozbekiston-aholisining-kambag-allik-darajasiga-ta-sir-etgan-omillar-tahlil-qilish>

² Дегтярев А.Н. Институциональные основы развития малого предпринимательства в XIX–XX вв. (На примере Башкирии) : автореф. дис. ... д-ра экон. наук: М., 2001. URL:

<http://economylib.com/institutsionalnye-usloviya-formirovaniya-malogo-predprinimatelstva-v-ekonomike-perehodnogoperioda#ixzz5z5BvUqki>

iqtisodiy xavfsizlikka, tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish shakllari va vositalariga bog‘liq. Chunki, tadqiqotlarimiz ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning shunday muhim shartlari borki, bu shartlarni bajarishda davlatning qo‘llab-quvvatlashi zaruratga aylanadi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda sog‘lom raqobat muhitini yaratish;
- xususiy mulkni tadbirkorlik faoliyatining asosiga aylantirish hamda daxlsizligini ta‘minlashda davlat tomonidan kafolatlarning barqaror huquqiy asoslarini yaratish;
- davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining barqarorligi hamda kichik va o‘rta biznes subyektlari hamda tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashning uzluksiz zanjirini yaratish;
- davlat tomonidan soliq imtiyozlari hamda imtiyozli soliq rejimining joriy etilishi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda rivojlangan infratuzilmani tashkil etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay va samarali kreditlash amaliyotni yo‘lga qo‘yish.

Yuqorida qayd etilgan talablarning ijrosini ta‘minlashda davlatning ishtiroki har doimgidan ham ko‘ra zaruriyatga aylanadi. Chunki, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida muayyan shart-sharoitlarni yaratish, yoxud cheklovlarni o‘rnatish imkoniyati faqat davlatning vakolatiga kiradi. Milliy iqtisodiyotimizda amaldagi qonunchilikka muvofiq, kichik korxonalarda xodimlarning eng yuqori soni qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 50 kishigacha, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida - 25 dan 50 kishigacha, sanoatda faoliyat turiga qarab 100 kishidan 270 kishigacha bo‘lgan korxonalar kiradi.

Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda yaratilgan qulay shart-sharoitlardan quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

- Kichik biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqti - 30 daqiqadan, hamda yakka tartibdagi tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazishdagi ortiqcha qog‘ozbozlikka barham berilganligi;
- Chet el investitsiyalari ishtirokida yangi tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning ular ro‘yxatdan o‘tkazilgan

sanada amalda bo'lgan stavkalarini besh yil muddatga qo'llash huquqining berilganligi;

➤ Kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda imtiyozli va samarali kreditlash tizimining yaratilganligi;

➤ Tadbirkorlar huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha Tadbirkorlar Ombudsimonining tashkil etilganligi hamda O'zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning bekor qilinganligi, soliq to'lovlari bo'yicha qonun buzilishlarini bilmasdan birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik subyektlarini barcha turdagi javobgarlikdan ozod etilishi bo'yicha davlat kafolatining berilganligi;

➤ Mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlikka ko'maklashish markazlarining tashkil etilganligi, "bir darcha" tamoyili asosida davlat xizmatlarining ko'rsatishi va boshqalar.

Shuningdek, endilikda tadbirkorlarning reytingini aniqlash va yuqori reytingli (AAA "100-96 balgacha") tadbirkorlik subyektlarida soliq tekshiruvlarini o'tkazilmaslik, QQS summasi o'rni tekshiruvlarsiz 1 kunda qaytarib berishlik;

(AA* "95-91 balgacha") "Faol tadbirkor" ko'krak nishoniga tavsiya etish; soliqlar bo'yicha mavjud ortiqcha to'lov summasini (QQS dan tashqari) 3 kunda qaytarib berish;

(A "90-86 balgacha") tovar import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan QQSni o'zaro hisobga olinishi kabi imtiyozlarning berilishi kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning uzluksiz zanjirini yaratish imkonini beradi.

XULOSA. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi zamonaviy iqtisodiyotda mehnatni tashkil etishning muhim shakli bo'lib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi davrda maqsadli va samarali ekanligi o'z tasdig'ini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uzreport.news/society/2023-yilda-ozbekiston-aholisining-kambag-allik-darajasiga-ta-sir-etgan-omillar-tahlil-qilish>
2. Дегтярев А.Н. Институциональные основы развития малого предпринимательства в XIX–XX вв. (На примере Башкирии): автореф. дис. - д-ра экон. наук: М., 2001. URL: <http://economylib.com/institutsionalnye-usloviya-formirovaniya-malogo-predprinimatelstva-v-ekonomike-perehodnogoperioda#ixzz5z5BvUqki>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901577>

FORMATION OF UZBEK BANK FINANCE TERMINOLOGY

Primqulova Oybahor Abdisalom qizi

Andizhan State Institute of Foreign Languages

ABSTRACT

Every language in the world has different ways of forming terms. Uzbek language is also without exception. In diverse fields of our life there are their own special terms and phrases. When it comes to bank finance sphere it is being enriched by improving relationships with the countries of the world. The most active ways of forming terms is divided into two types: internal and external.

Keywords: *Bank, finance, internal, external, semantic method, morphological method, composition, syntactic method, borrowings.*

ANNOTATSIYA

Dunyodagi har bitta tilning atamalarini shakllantirishda turli usullari mavjud. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Hayotimizdagi turli sohalar o'zining alohida maxsus atamalariga ega. Bank moliya sohasi haqida gap ketganda ushbu soha davlatlar o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi va ushbu sohaga ortib borayotgan talab tufayli ushbu sohaga oid terminlar ham ko'payib bormoqda. Terminlarni shakllantirish asosan ikki turga bo'linadi. Ular ichki va tashqi yo'llar bilan boyishdir.

Kalit so'zlar: *Bank, moliya, ichki, tashqi, semantic metod, morfologik metod, kompozitsiya, sintaktik metod, boshqa tildan olingan so'zlar.*

Uzbek language is colorful and it has diverse ways of forming new terms and words. Terminology is utilizing an ordinary word to represent a scientific or special meaning. This process is the result of using common lexical unit in a special texts which requires the features of terms. According to E.G. Kaitukova, as a result of such use, the word undergoes semantic specialization¹.

¹ E. G. Kaitukova, Methods of formation and development of Turkish economic terminology: 60-90s. XX century: diss. cand. philol. Sciences, Moscow, 262 (2007)

In the economic terminology of the Uzbek language, one can find such commonly used words as *aktiv* (assets), *ehtiyoj* (need), *transfert* (transfer), *kapital* (capital), which separately or in the structure of a multicomponent term, have undergone terminology.

Every language in the world enriches its vocabulary through the period in different ways. It is known that each language boosts its vocabulary especially by two sources. They are internal and external enriching ways. Of course, Uzbek language is not also exception. A.V. Maitova underlines that “the discussion about the sources of term formation is only part of a more global problem – the classification of the main methods of term formation”¹. In the work of the author the following ways of forming terms are considered as the main sources in spite of the fact that there are diverse opinions on this problem:

- 1) semantic (it is the way to form terms using by giving new meaning to the words which exist in the language);
- 2) morphological (terms are formed by affixation and compounding);
- 3) syntactic (forming terminological phrases);
- 4) borrowing words and loans:

In the first place it should be indicated that there is distinction between word-formation and term-formation. G. Ismoilov who searched about word-formation, accentuates that, in contradistinction to commonly utilized word-formation, terminological systems utilize some extent word-formation ways such as affixing, composition and semantic methods. According to the analysis of this issue, it can be concluded that in every terminological system the activity of word formation ways is contrasting. In addition, if it is analyzed by dividing word formation methods into synchronic and diachronic, then the period of creation of a particular terminological system can be determined roughly.

As emphasized earlier, the sources which contributed to the progress of the terminological system are divided into internal and external. This division is based on

¹ A. V. Maitova, The term system of the subject-specific language “banking” in the linguo-cognitive aspect: diss... cand. philol. Sciences, Saratov, 257 (2008)

a number of conveniences and a logical basis. In the process of developing of the Uzbek language, it can be seen that both resources serve to enhance the language equally and sometimes one of them can be dominant. The development of relationships with other countries affects to this fact altering their importance.

Exactly as a result of such influences that in the lexical composition of the Uzbek language, in particular, in economic terminology, namely in banking and financial terminology, an external source, that is, borrowing foreign words, has a dominant role than the internal capabilities of the Uzbek language. But such a situation should not grow to a substratum ¹.

Among two of the internal way of enriching vocabulary is considered as the source which serve to keep national essence, originality of the language. The type of concept emphasizes terms which emerge as a result of diverse word formation:

- a) affixation(a morphological process whereby a group of letters (the affix) is attached to a base or root word to form a new word);
- b) composition(the art of putting words and sentences together in accordance with the rules of grammar and rhetoric);
- c) phonetic;
- d) abbreviation(the process of abbreviating something);
- e) syntactic(combination of phrases);
- e) semantic(giving another meaning to the words in usage).

N.V. Moryakhina indicates that “Currently, a trend is developing towards the universalization of the language through the internationalization of vocabulary, there is an interest in the structural formation of terms, in particular, in the methods of formation by adding words (or their stems) and by reducing or abbreviating”²

Below each of the methods of forming of new bank finance terms is clarified individually. First of all comes affixation. Affixing method is one of the most common methods of word formation. Affixes that form nouns (ot yasovchi), adjectives (sifat

¹ E. T. Shirinova, Uzbek tili bank-moliya terminologysi: phil.fan. buyicha falsafa doctor(PhD) diss. Tashkent (2020)

² N. V. Moryakhina, Formation and functioning of the terminology of management in the Russian language: diss cand. Philol, Sciences, Kazan (2008)

yasovchi), verbs (fe'l yasovchi) are considered as the most actively used word-forming affixes in Uzbek. A great number of economic terms which are now in use are nouns. Adjectives, verbs are formed from the root of nouns, that helps to create a great number of terms in language system.

The affixes, for instance, -lash, -sh, -ish (-tion, -ing) are added to the root of a noun or verb and it forms another form of a noun. Avanslash(advancing, prepayment), kodlashtirish(coding), assignatsiyalash(appropriation), avtomatlashtirish(automation), mukofotlash(awarding), discontlash (discounting), axborotlashtirish(information), investitsiyalash (investment), kreditlash (lending), rasmiylashtirish(execution), limitlash(limitation), litsenziyalash(licensing), hisoblash(counting), to'lash(payment), debetlash(debiting), akseptlash(acceptance), identifikatsiyalash(identification), tasniflash(categorization), patentlash (patenting), baholash(evaluation), moliyalash (financing), baholash(evaluation) are examples of it.

There is another noun forming affix. It is -lik (-ity; -cy; -ship). For example, kafillik (guarantee), likvidlik (liquidity), vositachilik (brokerage), qimmatlik (value), rentabellik (profitability), debitorlik (debtory), agentlik (agency), qarzdorlik (indebtedness), stabillik (stability), vakillik (representation), bankrotlik (bankruptcy), korrespondentlik (correspondency), dilerlik (dealership) buxgalterlik (accounting) are formed with the help of this affix.

Next affix which forms nouns related to bank finance sphere is -chi (-er; -ier). Sotuvchi(seller), nazoratchi(manager), ta'minotchi(supplier), tasdiqlovchi(approver), budget oluvchi (budget taker), ijrochi(performer), qarz oluvchi(borrower), jamg'armachi(saver), soliq to'lovchi(taxpayer), boshqaruvchi(administrator) can be bright examples of it.

Also, bank-finance terms can be formed with the help of affixes -iy, -viy (-ial, -al): asosiy hisobvaraqa(main account), moliaviy hisobot(financial report), xorijiy valyuta(foreign currency), moliyaviy-iqtisodiy nazorat(financial-economical control), markaziy bank(Central bank), noemissiyaviy qimmatli qog'ozlar(non-emission securities), yakuniy summa(final amount), mahalliy budget (local budget), huquqiy

hujjat(legal document), hududiy bank(local bank), majburiy to'lov(compulsory payment), xususiy mulk (private property), dasturiy nazorat(programmatic control), shaxsiy mulk (personal property).

The following method of forming bank finance terms is composition method. The essential distinction between this method and affixation is that in affixation, a bound morpheme is attached to a root while in composition method new word is formed by adding two free morphemes. For example, if we take the free morpheme “giper” and join it to another free morpheme “inflatsiya” new term “giperinflatsiya” (hyperinflation) appears. The meaning of a compound word enhances from the concepts of the words that formulate it. In Uzbek language economic terminology, the addition and pairing of words can form new term with the use of composition method. In spite of the fact that this type of formed words are in small number in financial field, there are some complicated terms like paired words: hisobvaraƒ-faktura(main account invoice), bank-moliya (banking and finance), savdosotiq (trade-sale), internet-banking as well as compounds as giperinflatsiya (hyperinflation), agrobank (agrobank; agricultural bank).

Another way of forming bank finance terms is semantic way. In the process of forming new words in the language base, the semantic method is one of the most used ways. Forming terms in a semantic way is an issue which is proved in the works of Uzbek linguist G.M.Ismailov. The study supplies data about the process of the semantic method in diverse terminological systems and specific examples are given as a proof. Terminologization and transterminologization are the two forms of it.

Transterminologization was already mentioned in the 90s of the last century. In this process, the terms of one specialty are transferred to another. For example, the term amortizatsiya (depreciation) was used in the sphere of physics and it has been transferred to the economical field. units directly are the fruit of the internal potential of the Uzbek language.

Among other methods of forming terms the syntactic method is mentioned as the most active one in Uzbek language. To prove this opinion, a statistical analysis of

some terms given in “Banklarda buxgalteriya hisobi”(Accounting in banks) by A. Omonov, “Bank ishi” (Banking) by SH. Abdullayeva, “Bank- moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati”(“Annotated dictionary of banking finance terms in Uzbek”) by S. Muhamedova, “Xalqaro moliya munosabatlari”(“International financial relations”) by J.X.Ataniyazov are studied. As a consequence of the calculation, it turned out that 68% of the phrases in the given books are formed with the help of syntactic method. Economic terms in this way are formed from one root especially. Below we can see some examples of it:

Omonat(deposit) – omonat bo‘linmasi(deposit division), omonat kassalari(savings bank), omonat operatsiyalari(deposit operations).

To‘lov(payment) – to‘lov agenti(paying agent), to‘lov agentlik tarmog‘i(payment agency network), to‘lov talabnomasi(payment request), to‘lov terminali(payment terminal), to‘lov topshiriqnomasi(payment order).

Lizing(lease) – lizing beruvchi(lessor), lizing oluvchi(lessee), lizing muddati(lease term), lizing obyektlari(leased objects), lizing subyektlari(leased subjects), lizing to‘lovlari(lease payments), lizing shartnomasi(lease agreement).

As it is seen bank finance terms are very colorful and all the methods of forming them are essential in the learning process.

USED LITERATURE

1. E. G. Kaitukova, Methods of formation and development of Turkish economic terminology: 60-90s. XX century: diss. cand. philol. Sciences, Moscow, 262 (2007)
2. A. V. Maitova, The term system of the subject-specific language “banking” in the linguo-cognitive aspect: diss... cand. philol. Sciences, Saratov, 257 (2008)
3. E. T. Shirinova, Uzbek tili bank-moliya terminologiyasi: phil.fan. buyicha falsafa doctor(PhD) diss. Tashkent (2020)
4. N. V. Moryakhina, Formation and functioning of the terminology of management in the Russian language: diss cand. Philol, Sciences, Kazan (2008)
5. Sh. Abdullayeva, Bank ishi darslik: Toshkent, Moliya institute – 2003
6. S. Muhamedova, Bank moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati: Toshkent-2020

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10910352>

INFORMATION TECHNOLOGY IN CONSTRUCTION MANAGEMENT

Sayfullaeva Madina Ismatovna

Teacher, Bukhara State University,

madina.sayfullaeva@gmail.com

***Abstract.** The article discusses the relevance and necessity of using modern information technologies in construction management. The author cites several areas of application of IT in the area under study, as well as the advantages and disadvantages of the use of information technologies in the management of construction processes identified during the study.*

***Key words:** Construction, information technology, construction process management.*

Construction, of course, is one of the most important areas of the economy, because it is here that the foundations for the development of society and the well-being of citizens are formed. Construction production volumes, being a barometer of economic stability, always reflect the current state of affairs in the construction industry.

Information technologies are penetrating all areas of life, including construction. It started with simple solutions to calculation problems, but over time, IT has evolved into highly complex management systems capable of effectively coordinating and controlling the most large-scale and complex construction projects. Today's technologies can significantly increase construction efficiency, improve control over deadlines and budgets, and also minimize the risks of possible errors and omissions.

Information technology has a significant impact on construction management, and the introduction of new digital tools and methods helps improve the efficiency, manageability and quality of projects. Here are several areas where information technology is used in construction management:

1. Digital Twins of Construction Projects: A study of the use of digital models (BIM) to create virtual twins of construction projects, their application in design, planning, construction and life cycle management of the facility.

2. Integration of information systems in construction: Assessing the integration of various information systems such as ERP (Enterprise Resource Planning), CRM (Customer Relationship Management), CAD (Computer-Aided Design) and others, for managing projects, resources and communications.

3. Mobile technologies and cloud computing: Analysis of the use of mobile applications, cloud platforms and IoT technologies (Internet of Things) for collecting data on construction sites, monitoring processes and exchanging information between project participants.

